



MAKTAB O'QUVCHILARNING BILIMLARINI O'ZLASHTIRISH MAZMUNINI BAHOLASHDA MUAMMOLI O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

A.N.Nusratov

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Shodmonova Ruxsora Shokirovna

Ilmiy rahbar: P.f.f.d. (PhD), dotsent .

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14610043>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 5-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 7-yanvar 2025 yil

*maktab, maktab o'quvchilari,
baholash, muammoli o'qitish
metodlari, bilimlarni baholash,
pedagogika.*

ABSTRACT

*Maqolada maktab o'quvchilarining bilimlarini
o'zlashtirish mazmunini baholashda muammoli
o'qitish metodlaridan foydalanish imkoniyatlari
pedagogik jihatlari bilan yoritilgan.*

Dunyo ta'lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarning qobiliyatlarini rivojlantirish lozimligi ko'rsatmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi, yo'nalishini belgilab berish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tashkil etilib, o'quvchi faUmumiy o'rtaatining har bir sohasida ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Bu esa o'z navbatida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirmoqda. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSh, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalri asosida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim tizimini o'ziga xos pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida, shuningdek, mamlakatimizni 2017 - 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod qabul qilingan qarorlarining mazmun-mohiyati ta'lim, sport, ma'naviyat sohalarini rivojlantirishga qaratilganligi tahsinga sazovordir. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, Umumiy o'rta ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "Bugungi kunda xalq ta'limi Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faUmumiy o'rtaat olib borayotgan bo'lajak o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun bo'lajak o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim"¹, - degan fikrlari, pedagoglarning qobiliyatlarini yana takomillashtirish davr talabi ekanligi

¹ 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son [Farmoni](https://lex.uz/docs/-4312785) <https://lex.uz/docs/-4312785>

ko'rsatmoqda. Muammoli o'qitishning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turdagi ta'lim bo'lajak o'qituvchilarda tashkilotchilik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda har bir bo'lajak o'qituvchi imkon qadar individual yondashishini, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etadi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar guruhi, o'quvchi-o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Muammoli o'qitishning mazmuni va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida Pedagogika fanlarini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish pedagogik muammo sifatida rivojlantirishni takomillashtirishda Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining imkoniyatlari katta. Bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning intellektual rivojlanishi;
- jismoniy rivojlanishi;
- mehnatga ijobiy munosabatning tarkib topisi;
- estetik did va estetik ongning shakllanishi;
- ekologik madaniyat;
- iqtisodiy tarbiya elementlari va xokazo.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik qobiliyatlarini, tafakkuri, mustaqilligining shakllanishi, rivojlanishi o'z-o'zidan, avtomatik ravishda amalga oshavermaydi. Buning sharti ta'lim tizimiga bilimlarni yangicha o'zlashtirish yo'llari va buning uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni olib kirishdan iborat.

O'qituvchi qobiliyati va uning samarali pedagogik faUmumiy o'rtaati haqida sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida o'quvchilar ega bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar majmui, ularning mohiyati haqidagi qarashlar yoritilgan.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faUmumiy o'rtaatining innovatsion hamda muammoli xarakter kasb etishiga erishishdir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faUmumiy o'rtaatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Jumladan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.KanKalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin[25] kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda shaxsga yo'nalritlgan ta'lim asosida pedagoglikni rivojlantirishni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabador bo'lish orqali pedagog faUmumiy o'rtaatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan. U.Abduvahobov, A.Aliyev, B.Ziyomuhammadov, S.Ziyomuhammadova, M.Imomnazarov, F.Ismoilov, V.Karimova, T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuxamedov, A.Erkayev, E.Yusupov, S.Qodirov, E.G'oziyev, Z.G'ofurov, U.A.Qosimov va boshqalar tomonidan shaxs kamoloti negizida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar, ularning milliy-etnik, ijtimoiy-psixologik jihatlari, "shaxs" tushunchasining falsafiy, tarixiy va psixologik talqini o'z ifodasini topgan. Shuningdek, A.A.Asmolov, L.G.Borisova, A.N.Leontev, R.S.Nemov, I.P.Podlasiy hamda V.A.Slasteninlar tomonidan shaxs tushunchasining mohiyati har tomonlama rivojlangan shaxs talqini asosida tahlil etilgan. V.I.Andriyanova, Q.Yo'ldoshev, Sh.N.Majitova, U.Mahkamov,

O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Ochilov, S.Ochilov, M.Quronov va boshqalarning ishlarida barkamol shaxs tarbiyasi, uni samarali tashkil etish, shaxs shakllanishida oila, Umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik o'rni va roli, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik faUmumiy o'rtaat samaradorligini ta'minlash masalalari o'rganilgan.

Biroq, muammoni nazariy jihatdan o'rganish Umumiy o'rta ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarbiyalash davr talabi bo'lishiga qaramasdan yetarlicha taxlil qilinmaganligi, jarayonning mazmuni va muhim tamoyillari zamon talablari darajasida asoslanmaganligini ko'rsatadi.

Pedagogika fanlarini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish pedagogik muammo sifatida rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish haqida olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. XXI asrga kelib bo'lajak o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi bo'lajak o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.² Bo'lajak o'qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi va ta'lim muassasalarida faUmumiy o'rtaat ko'rsatuvchi shaxsdir.

Ayni vaqtda ta'lim – inson faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Ilmiy-texnik jarayon o'zgarishlari bilan bog'liq holda ta'lim nazariyasini qayta yaratish, ya'ni fanning jamiyat ishlab chiqarish kuchiga aylanishini ta'minlash, amaliy ko'rsatkichlarni rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligiga erishish mumkin.³ O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar o'zida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uning mazmuniga milliy ruh singdirish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda ilg'or uslublarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni aks ettiradi. Bu yo'nalish ham ko'lam, ham mazmun jihatidan kengayib, u ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalarini qo'llash, ta'limni va o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish asosida mazkur jarayonni individuallashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunamiz?

"Texnologiya" tushunchasi yunoncha "Texnos" (techne) va "logos" (Logos) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Hunar fani"ni o'rganish degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872 yilda qo'llanilgan. «Texnologiya» tushunchasi bugungi kunda mazmun va mohiyatiga ko'ra quyidagi holatlarni ifodalash maqsadida qo'llanilmoqda:⁴

- 1.Texnologiya – san'at, mahorat, ko'nikma, metodlar yig'indisi, muayyan holatni o'zgartirishga xizmat qiluvchi jarayon.
- 2.Texnologiya – inson faUmumiy o'rtaati va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan madaniy tushuncha.
- 3.Texnologiya – texnik jihatdan ahamiyatli sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi.
- 4.Texnologiya – qandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig'indisi.
- 5.Texnologiya – o'quv jarayoniga tashkiliy, maqsadli pedagogik ta'sir natijasi.

² To'xtaxo'djayeva M.X va boshqalar "Pedagogika" T. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2010 y., 356-b.

³ Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения управленческим дисциплинам. — Ташкент: Фан, 1994.

⁴ Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. — Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. — 160 б

6.Texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi. 7.Texnologiya – ta'lim maqsadiga erishishni kafolatlovchi vosita. 8.Texnologiya – ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonining yozma bayoni.

9.Texnologiya (PT) – amaliyotga joriy qilinishi talab etilayotgan ma'lum bir pedagogik tizim loyihasi ⁵ «Zamonaviy texnologik jarayon» deganda zarur vosita va sharoitlardan foydalanilgan holda ma'lum operatsiyalarni muayyan ketma-ketlikda bajarishga yo'naltirilgan faUmumiy o'rtaat tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, mehnat qurollari va predmetlari vositasida osqichma-bosqich ta'sir etish orqali tayyor mahsulot yaratishga yo'naltirilgan faUmumiy o'rtaat tushuniladi.⁶

Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chiradigan bo'lsak, pedagogik texnologiya – o'qituvchi(pedagog)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda tizimli ta'sir ko'rsatishi va bu faUmumiy o'rtaat mahsuli sifatida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir, degan g'oya ifoda etiladi. Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda, pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaga ko'plab ta'riflar berilgan. Shuningdek, pedagogik adabiyotlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin; chunonchi, "o'qitish texnologiyasi", "ta'limli texnologiya", "ma'lumot texnologiyasi", "o'qitish jarayoni texnologiyasi" va hokazo. «O'qitish texnologiyasi» pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialining o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya yordamida amalga oshirilishini ifoda etadi. Shu jihatga ko'ra u ko'proq xususiy metodikaga yaqin qatorda turadi.⁷

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi esa ma'lumot texnologiyasining joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi – pedagogik jarayon – tahsil oluvchi" funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosiga quriladi. Uzoq yillar davomida pedagogik texnologiya olimlar orasida o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish sifatida qarab kelindi. 70-yillarga kelib pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Xususan, Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi – o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" e anligi e'tirof etiladi.

YuNESKOning ta'lim borasidagi maxsus hujjatida pedagogik texnologiyaga shunday ta'rif beriladi: Pedagogik texnologiya – inson va texnika resurslarini hisobga olgan holda butun ta'lim jarayonini va o'zlashtirilgan bilimlarni baholashning tizimli metodi va samaraliroq ta'lim shakllariga erishish uchun ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirdir. Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada o'rganilayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi.

⁵ Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari /Qo'llanma. – T.: [Bo'lajak o'qituvchi](#), 2004. – 104 b.

⁶ Авлиёкулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари. – Т., 2001. – 69 б.

⁷ Бегимкулов У.Ш. Олий педагогик таълим тизимига замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини жорий этишнинг илмий-педагогик асослари. Пед.фан. доктори дис. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 250 б.

«Pedagogik texnologiya»ning ta'limdagi amaliylik jihati va tashkiliy-uslubiy imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tatbiq etilishi jahon pedagoglarining unga bo'lgan e'tiborini kuchaytirmoqda. Texnologik yo'nalishga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. "Metod" tushunchasining mohiyatini yorituvchi qarashlar Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini echishga yo'naltirilgan o'qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faUmumiy o'rtaati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.⁸ Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.

O'qituvchini samarali faUmumiy o'rtaat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi tahsil oluvchilar faUmumiy o'rtaatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tahsil oluvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faUmumiy o'rtaatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi – tahsil oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy elementlari: ta'lim jarayoning umumiy loyihasi; ta'limni tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj; ta'lim maqsadi; ta'lim mazmuni, shakl, metod, usul va texnikasi; tahsil oluvchi faUmumiy o'rtaati; o'qituvchi faUmumiy o'rtaati. Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq, muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi tahsil oluvchining ta'lim jarayonidagi etakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash etarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi

1.2. Ta'lim jarayoniga muammoli va texnologik yondashuv tamoyillari, turlari va ishlab chiqish bosqichlari

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari umum-pedagogik, xususiyyatli metodik hamda lokal (modul) bilimlarga asoslanadi. Shu bois pedagogik xodimlar, shuningdek, bo'lg'usi o'qituvchilar o'z faUmumiy o'rtaatlarida pedagogik texnologiyadan foydalanishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, yuqorida qayd etilgan bilimlarni puxta o'zlashtira olishlari lozim. Zero, pedagogik texnologiya puxta o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarga tayanilgan holda tashkil etiladigan yuksak samarador pedagogik faUmumiy o'rtaat jarayonidir.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi va tamoyillari

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat;

- o'quv jarayonini faollashtirish;
- tahsil oluvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va tahsil oluvchilarni mustaqil fikrlashga hamda o'z fikrini bayon etishga o'rgatish.

⁸ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 256 с

Ma'lumki har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo'lib, tahsil oluvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilmog'i kerak. Ilg'or pedagogik texnologiya markazida ta'lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti-yu ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va tahsil oluvchi turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida bo'lishi lozim. Buning uchun ta'lim jarayoni, o'qituvchi, ta'lim tarbiya - jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari tahsil oluvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, tahsil oluvchi shaxsiy faUmumiy o'rtaatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini vujudga keltirish, tahsil oluvchi faUmumiy o'rtaatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham egadir (12shakl):

Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili. Ushbu tamoyil ikki jihatni o'zida aks ettiradi: ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, «tizimlilik» tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari⁹

Asoslilik (fundamentlik) tamoyili. Mazkur tamoyil fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun «yadro», «o'zak» sanaluvchi ma'lumot (axborot)larga ega bo'lib, ushbu ma'lumot (axborot)lar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi. Bunday mohiyatli yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish tahsil oluvchilarga mavjud fanlar sohalari bo'yicha ozozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bo'lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi. Mohiyatli yondashuv asoslantirishning muhim omili sanaladi. U, shuningdek, tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarni umumlashtirish tarzidagi **sinergetik** yondashuvni ham ko'zda tutadi.

Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili. Mazkur tamoyil olmon pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili tahsil oluvchilarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi etakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda

⁹ Жуманиёзова Н.Т. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари.п.ф.н., дисс. – Т., 2007.

o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimedia vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda biz mutaxassislarini «soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faUmumiy o'rtaatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari» g'oyasi etakchi o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga tayyorlay olishimiz lozim.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunoncha humanus - insoniylik, humanitas -insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsada, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. **Insonparvarlashtirish** ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, **insoniylashtirish** tushunchasi esa shaxs va uning faUmumiy o'rtaatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, **insonparvarlashtirish** - bu inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadrqimmat, sha'ni, ornomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faUmumiy o'rtaatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, **insoniylashtirish** «barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun» degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faUmumiy o'rtaat jarayoni sanaladi.¹⁰ Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uning jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog tahsil oluvchilar faUmumiy o'rtaatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi:¹¹

- 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga tahsil oluvchilarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim;
- 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимов А.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини шахсга йўналтирилган технологиялар асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс... – Т., 2018. – 142 б. 2.
2. Муслимов Н., Усмонбоева М., Мирсолиева М. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. Ўқув-услубий мажмуа. Тошкент – 2016. – Б. 28-32.
3. Жуманиёзова Н.Т. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари..п.ф.н., дисс. – Т., 2007.
4. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/> (murojaat vaqti 6.07.2024)

¹⁰ Олимов Қ.Т., Сайидахмедова М. С., Жалолова Д.Ф., Бозорова М.Қ., БолтаеваМ.Л., АлимоваА.А. Педагогик

¹¹ Муслимов Н., Усмонбоева М., Мирсолиева М. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. Ўқув-услубий мажмуа. Тошкент – 2016. – Б. 28-32.

5.Mardiyev Sh. Boshqaruvda rahbar qiyofasi va uning axloqi. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / Volume 4 Issue. 1-February, 2023.-B.391

6.Maxmudov N., Boymatov A. Liderlik qobiliyatini namoyon qilishning psixologik xususiyatlari/ <https://interoncof.com/index.php/germany/article/view/989929>.-B.355



**INNOVATIVE
ACADEMY**